

Haqiqat va bid'at

“Gumanitar fanlar” kafedrası professor-o'qituvchilari Azimov.X, Alimuxamedova N, Abduraxmonova I, Normatov O, Botirova X boshchiligida 15.-mart kuni 2 Talabalar turar joyida “Aqidada adashmaylik. Diniy ekstremizm va terrorizm tarixi va ildizlari” mavzusida davra suhbatı o'tkazishdi. Davra suhbatida, talabalarga islomiy guruhların tarixi va bugungi kundagi faoliyatları, ularning jamiyat va insoniyat inqiroziga ne chog'li salbiy ta'sir etayotganlarını isbotları bilan tushuntirishdi

Buning sababi sifatida o'qituvchilar tomonidan, islom dinida chuqur (g'uluv) ketish yoki yengil qarash ekanligi, islomiy bilimlarni soha mutaxassisları emas, “ko'cha olimlaridan” o'rganayotganlikları, yoki moddiy manfaat ekanligi bilan izohlashdi. Yoshlar qanday qilib buzuq aqidalarga ergashib qolayotganları, to'g'ri e'tiqod tanlay olishları uchun qanday yo'l tutishları, kimlardan va qanday adabiyotlardan foydalanish kerakligi aytib o'tildi. Shu maqsadda gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Abduraxmonova I. ko'chma kutubxona tashkil qildi. Yoshlar bilib bilmay keraksiz va zararlı oqimlar adabiyotlarını qo'llariga olib qo'yishlarının oldini olish maqsadida, talabalarga bugungi kunda, O'zbekiston Musulmonları idorasi, diniy qo'mita ruxsati bilan chop etilayotgan kutubxonalardan topish mumkin bulgan adabiyotlar bilan tanishtirdi. Bu adabiyotlardan talabalar o'zlarının mazhabları, fiqh ilmi, kalom, islom dinining farzlari, gunoh, xalol va harom, ijtimoiy odoblar kabi diniy bilimlarga ega bo'lishları mumkinligi aytildi. Talabalar bu adabiyotlarga katta qiziqish bilan qaradilar va ro'yxatlarını yozib oldilar. Talabalar o'zlarını qiziqtirgan savollar bilan murojaat etishdi. O'qituvchilar talabaların savollariga atroflicha javob berishdi. Davra suhbatı o'ta qizg'in ruhda o'tdi.



Tarbiyachi-pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov